

KINOYA HODISASINING TASNIFLANISHIDA ILMIY QARASHLAR TAHLILI

Turdimatova Madinaxon Ravshanbek qizi

FarDu tadqiqotchisi

Kinoyaning tasniflash masalasi ham diqqatga sazovor masalalardan bo'lib, turli munozaralarni vujudga keltiradi. Kinoyani tilshunoslik fani jihatidan o'rganar ekanmiz, tasnif masalari nafaqat tilshunoslik doirasidan, balki boshqa fanlar doirasida o'rganiladigan masalalarni ham qamrab olgan.

Tilshunoslikda kinoyaning tasnif masalasida uning turli xususiyatlari e'tiborga olingan. Jumladan, T.I.Yakovenko kinoyaning bo'yodorligi jihatidan kelib chiqib quyidagi turlarini belgilaydi: qo'pol yolg'on, beg'araz hazil, yengil, nozik, achchiq, nafratli, qoralash kinoyalari¹.

O.P.Yermakova kinoyaning tasnifida bitta jihatdan D.C.Muekening tasnifiga yondashadi: ochiq, yopiq, sitatali, verbal va matn kinoyasi, vaziyatga aloqador va assotisatsiv kinoya². Ushbu tasnifda O.P.Yermakova kinoyaning ikki fan doirasida tadqiqiga yondashgan, yani adabiyotshunoslik va tilshunoslik. Y.A.Pechenixina til va nutq kinoyasini farqlaydi³. Til kinoyasini so'z ma'nosi bilan chambarchas bog'liligini hamda lug'atlarda qayd etilishini ta'kidlasa, nutq kinoyasi esa ma'lum bir nutqiy vaziyatda sodir bo'lishini izohlaydi. Mazkur olimaning qarashlari kinoyaning bevosita stilistika va pragmalingsvistika fanlarida tadqiqi nazarda tutilganligi ko'rinib turibdi.

Kinoyaning tasnif masalasiga nafaqat rus tilshunoslari, balki xorijiy tilshunoslar hissa qo'shganligini kuzatish mumkin. Jumladan, N.Greben kinoyaning tasnifida himoya qilish xususiyatiga ko'ra, tanqid qilishiga ko'ra, samimiylik va do'stona munosabatiga ko'ra, so'zlovchining tinglovchidan ko'ra o'zini yuqori qo'yganligi kabi xususiyatlarini

¹Яковенко Т. И. Ирония как имплицитное содержание онимических единиц.– Ростов – на – Дону, 2011.

²Ермакова О. П. Ирония и ее роль в жизни языка.– Калуга, 2005.

³Печенихина Е. А. Языковые выражения иронии в произведениях Ж. М. Эсы Кейроша.– М., 2010.

ajratadi⁴. D.Mueke kinoyaning tasnifida adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari ehtiyojlaridan kelib chiqib yondashadi va quyidagi turlarini ajratadi: vaziyat kinoyasi, verbal kinoya, komik kinoya, fojiaviy kinoya, taqdir kinoyasi, o'zini o'zi kamsitish kinoyasi, usul yoki xarakter kinoyasi, olam yoki kosmik kinoya⁵. Mazkur olimning tasnifi tilshunoslik va adabiyotshunoslik doirasidan chiqib ketib, hattoki falsafa fani qamrovida kinoyaning tadqiqini nazarda tutadi. Tilshunoslik fani jihatida D.Mueke yana bitta tasnif taklif qilib, unda kinoyaning faqat lisoniy xususiyatlariga e'tibor qaratgan: yashirin kinoya, oshkora kinoya, shaxsiy kinoya. **Oshkora kinoya** vaziyatni zid bo'lgan so'zlar va tushunchalar bilan tasvirlanishini nazarda tutadi: masalan, xunuk ayolni chiroyli deb tasvirlash, yomon bajarilgan ishni yaxshi bajarildi, deyish va hkz. Oshkora kinoyada asl ma'no har ikki taraf qatnashuvchilariga ya'ni gapiruvchi va tinglovchiga ham yaqqol ko'rinib turadi hamda nutqdagi birikmani kinoyaga aylanatiradigan yagona narsa bu "qarama-qarshilik yoki nomuvofiqlik"ning "oshkoraligi"da seziladi. Kinoyaviy ma'noga ega deb tasniflanishi mumkin bo'lgan sarkazm holatlari ochiq kinoyani oshkor etadi. Muecke ironiyaning bu shakli qisqa noto'liq ma'noga ega ekanligini ta'kidlaydi; hamma uchun ayon bo'lgan narsa takrorlanishi bilan tez fursatda o'zining ritorik ta'sirini yo'qotadi.

Yashirin kinoya "ko'rish uchun emas, balki aniqlash uchun mo'ljallangan". **Kinoyachi** o'zi rejalashtirgan maqsadiga erishish uchun o'zini bilmagandek, befarqdek ko'rsatadi va aynan shu nuqta ahamiyatli hisoblanadi. Negaki, tinglovchi kinoya unga piching, iztexzo va yoki kesatq tarzda otilganini anglab qolishi kinoyaning chiroyli tarzda yashirin ma'no tashuvchilik xarakterini namoyon qilmasdan qolmaydi. Bu jarayonda, masalan, gapiruvchining aytilish uslubi va ohangi o'rtasidagi nomuvofiqlikni aniqlash qobiliyatini yoki tinglovchilarning matn mazmunidagi ichki qarama-qarshilikni aniqlay olishi muhim ishoralardan hisoblanadi. Yashirin kinoyani suprasegmental birliklar orqali ifodalash mumkin, yani ifoda etilgan nutq ohang va intonatsiyaga to'g'ri kelmasligi mumkin.

⁴ Gröben, N. Ironie als spielerischer Kommunikationstyp? In Sprache der Gegenwart.– Schwann, 1986.

⁵ Muecke D. C. Irony. – Bristol, 1970. –P.110-130.

Shaxsiy kinoya, umuman idrok qilish uchun mo'ljallanmagan balki, u butunlay kinoya egasining ichki qoniqishi uchun rol o'ynab beradi. Bunda kinoyadan foydalangan shaxs tinglovchiga nimani ishora qilganidan o'zi habardor bo'lsa-da, aksincha tinglovchilarni loqaydligidan o'zi hayratga tushadi. Natija shunday bo'ladiki, tinglovchi bu kinoyamuz tarzda aytilgan gapni o'tkazib yuboradi, anglolmay qoladi. Boshqacha qilib aytganda, kinoyaning ushbu turi faqat kinoya qilgan shaxsning ichki zavqi uchun mo'ljallangan bo'lib, boshqalar tomonidan idrok qilish, tushunish qiyinligini bilgan holatda ishlatilishidir. Shaxsiy kinoya tinglovchi tomonidan so'zlovchi nutqida ifodalangan kinoyaning tushunilmaganligi e'tirof etilib, kinoyaning tadqiqini pragmatolingvistika fani doirasida belgilaydi.

Kinoyaning tasnif masalasiga tadqiqotchi va olimlar kinoyaning har bir xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yondashishini kuzatishimiz mumkin. Kinoyaning tasniflaridan eng to'liq ifoda etilgani I.B.Shatunovskiyning⁶ tasnifi deb e'tirof etamiz. Quyida uning tasnifini taklif etamiz:

1. Aniq kommunikativ propozitsional kinoya. Kinoyaning mazkur turi ilokutiv va perlokutiv nutqiy aktlarda ifodalanishi nazarda tutiladi, yani so'zlovchining nutqiga tinglovchining munosabati belgilanishi e'tiborga olinadi. Kinoyaning mazkur turi muloqot diskursi doirasida tadqiq qilinishi mumkin.

2. Obyektiv (ontologik) kinoya. Kinoyaning mazkur turi olamning falsafiy qonunlari bilan bog'liq bo'lib, til qonuniyatlarini ham qamrab oladi. Til va falsafaning uzviy bog'lanishini ko'rsatadi. Ontologik kinoya aytilgan ifodaning ma'nosi zidligini namoyon etadi.

3. Subyektiv (epistemik) kinoya. Kinoyaning ushbu turi ham falsafa fanidan kelib chiqib, ifoda etilgan nutq haqiqat emasligi, yolg'onligini ko'rsatadi.

4. Interpretasion kinoya adabiyotshunoslik fani doirasida qo'llanib, muallif va o'quvchilarning vaziyatdagi kinoyaning turli tushunishini belgilaydi.

⁶ Шатуновский И. Б. Ирония и ее виды // Логический анализ языка. Языковые механизмы комизма. – М., 2007.

5. Nominativ kinoya yashirin ma'noli bo'lib, kinoya nutqda emas, balki nutqda ifoda etilgan predmetga taalluqligini namoyon etadi.
6. Muallif kinoyasi faqat badiiy matnlarda uchraydi.
7. Illokutiv kinoya nutqiy aktlar bilan bog'liqdir.
8. Umumiy kinoya turli til birliklari, yani suprasegmental birliklar orqali, xususan intonatsiya va ohang, leksik birliklar, paralingvistik vositalar orqali namoyon etiladi.
9. Kinoyali hazillar o'z ma'nosida tanqidiylik xususiyatiga ega emas, faqat do'stona hazil orqali murojlatni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ермакова О. П. Ирония и ее роль в жизни языка.— Калуга, 2005.
2. Gröben, N. Ironie als spielerischer Kommunikationstyp? In Sprache der Gegenwart.— Schwann, 1986.
3. Muecke D. C. Irony. – Bristol, 1970.
4. Печенихина Е. А. Языковые выражения иронии в произведениях Ж. М. Эсы Кейроша.— М., 2010.
5. Шатуновский И. Б. Ирония и ее виды // Логический анализ языка. Языковые механизмы комизма. – М., 2007.
6. Яковенко Т. И. Ирония как имплицитное содержание онимических единиц.— Ростов – на – Дону, 2011.